

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITET

KAROMOV SHAVKAT ANVAR O'G'LI

**ANTIK VA ILK O'RTA ASRLARDA JANUBIY SUG'DDAGI
IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Karomov Shavkat Anvar o'g'li

Antik va ilk o'rta asrlarda janubiy sug'ddagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar 5

Каромов Шавкат Анвар угли

Социально-экономические и культурные процессы в Южном Согде в античности и раннем средневековье..... 27

Karomov Shavkat Anvar ugli

Social, economic, and cultural processes in Southern Sogd in antiquity and the early Middle Ages..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITET

KAROMOV SHAVKAT ANVAR O'G'LI

**ANTIK VA ILK O'RTA ASRLARDA JANUBIY SUG'DDAGI
IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Tar1553 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshov Boxodir Jurayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Raimqulov Abdisabur Azzamovich
tarix fanlari doktori

Yarqulov Alisher Otaqulovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilotlar:

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi
(2026-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.E. Muminova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, t.f.d., professor

N.N. Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.n., dotsent

Yu.A. Ergasheva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzusining dolzarbligi va zaruriati. Yer sharining katta qismini qamrab olgan Yevrosiyo makoni – tekislik, tog‘, dasht va cho‘l hududlari qadimdan insoniyat tarixiy taraqqiyotining muhim o‘choqlaridan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, uning tarkibiy qismi bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar, migratsiya oqimlari hamda xalqlararo aloqalar jahon tarixida alohida o‘rin tutadi. Mazkur jarayonlar jahon tarixshunosligida bir asrdan ziyod vaqt davomida muntazam tadqiq etib kelinayotgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ham ular o‘z ilmiy dolzarbligini saqlab qolmoqda. G‘arb va Sharq sivilizatsiyalarining o‘zaro ta‘siri va uyg‘unlashuvi, xalqaro munosabatlarning tobora chuqurlashib borishi sharoitida madaniy merosni, mahalliy madaniyatlarni hamda qadimiy tarixiy-madaniy hududlarda kechgan jarayonlarni chuqur o‘rganish zaruriyati kuchayib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo xalqlarining o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini tarixiy manbalar asosida tadqiq qilish, ularning jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o‘rnini belgilash, shuningdek, mavjud tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish masalalari tarix fanining dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda qator oliy o‘quv yurtlari ilmiy markazlarida antik davrni o‘rganish kompleks va fanlararo yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda yozma manbalarni tanqidiy tahlil qilish, arxeologik topilmalarni ilmiy qayta tiklash, epigrafik va numizmatik materiallarni o‘rganish, shuningdek, turli hududlar tarixiy jarayonlarini qiyosiy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodologiya qadimgi jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari, siyosiy tuzilmalari va madaniy hayotini rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Shuningdek, madaniy-antropologik yondashuv orqali qadimgi xalqlarning urf-odatları, diniy qarashları va etnomadaniy aloqaları ilmiy asosda tadqiq etilmoqda. Fanlararo integratsiya esa (arxeologiya, filologiya, etnologiya, sotsiologiya va tabiiy fanlar yutuqlaridan foydalanish) antik davr tarixini chuqurroq va kengroq anglashga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, zamonaviy tadqiqotlarda antik davr nafaqat alohida bir tarixiy bosqich sifatida, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida ilmiy asosda tahlil qilinmoqda.

O‘zbekiston tarixi Markaziy Osiyo tarixining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, mintaqaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jarayonlarini chuqur anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shu boisdan, Janubiy Sug‘dda yuz bergan tarixiy-madaniy jarayonlarning ildizlari, ularning shakllanish asoslari va rivojlanish omillarini yangi ilmiy ma‘lumotlar asosida tadqiq etish, mavjud ilmiy muammolarni tahlil qilish hamda umumlashtirilgan xulosalar chiqarish tarix fanining dolzarb

vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Sug'dning O'zbekiston sivilizatsiyasi shakllanishi va rivojiga qo'shgan hissasini ilmiy asosda ochib berish bugungi tarix fani uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. So'nggi yillarda mamlakatimizda antik davr va ilk o'rta asrlar tarixini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar sezilarli darajada kuchayib bormoqda. Bu jarayon, eng avvalo, "tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va uni avloddan-avlodga yetkazish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"¹ degan tamoyil bilan chambarchas bog'liqdir. Natijada O'zbekistonda qadimgi davr va Sug'd tarixini chuqur ilmiy tadqiq etish, milliy tarix fanidagi mavjud qarashlarni boyitish hamda jahon ilm-fanidagi ilg'or yutuqlar bilan uyg'unlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-yanvardagi PF-5881-son "Moddiy-madaniy va arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida farmoyishi, "Moddiy-madaniy obektlarni muhofaza qilish sohadagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son qarori, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi farmoni hamda boshqa qarorlarda belgilangan ilm-fan hamda moddiy va madaniy merosni ilmiy o'rganish, targ'ib etish va boyitib borish kabi vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qadimgi yozma manbalarda Sug'diyona o'lkasi Sug'da, Sug'uda, Sug'diyona, Gava Sug'da nomlari bilan eslanadi. Avestoning Yasht kitobida tilga olingan. "Sug'd makoni Gava" Sug'diyonaning eng qadimgi viloyati bo'lgan bo'lishi mumkin². Avestoda viloyatlarning nomi ikki xilda – Gava Sug'da va alohida Sug'da sifatida eslatiladi. Gerodot esa, sug'diylarni ikki marotaba "Tarix" asarida tilga olgan bo'lsa, Ahamoniylar mixxatlari Sug'd haqida asosan rasmiy darajada e'lon qiladilar va turli xil tarixiy ma'lumotlarni o'rganishda ulardan foydalanish og'ir kechadi³.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга ўтамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 29 (592 б).

² Сағдуллаев А.С Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент. Ўзбекистон, 1996. – Б. 12. (102-б).

³ Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Дарслик. 1-китоб. – Тошкент:

Sug'ddagi Maroqanda, Nautaka va Ksenippa viloyatlari haqidagi ma'lumotlar Kvint Kursiy Ruf va Arrian Flaviy asarlarida uchraydi⁴. Antik davrdan ilk o'rta asrlarga o'tish davri Sug'd haqidagi ma'lumotlar Xitoy manbalarida keltiradi. Xitoy manbalari ko'p hollarda Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni Suse yoki Suli sifatida tilga oladi⁵. Biz o'rganayotgan mavzu qisman bo'lsa-da, ayrim tadqiqotchilarning ishlarida u yoki bu darajada yoritilgan. Xususan, rus turkologlari S.G. Klyashtorniy, L.N. Gumilyov, sug'dshunos olimi O.I. Smirnova, V.A. Livshits, Y.A. Zuyev, K.M. Baypakov⁶larning tadqiqotlarida Janubiy Sug'ddagi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ham to'xtalib o'tilgan.

O.I. Smirnova boshqalardan farqli o'laroq janubiy Sug'ddagi Kesh va Naxshabda kechgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarga e'tibor qaratgan bo'lsa, V.A. Livshits ushbu viloyatlarning madaniy aloqalari haqida kengroq ma'lumotlar beradi. Mustaqillik yillarida E.V. Rtveldze o'z ilmiy izlanishlarida antik va ilk o'rta asrlar davri Sug'd (asosan Kesh) tarixiga, xususan uning siyosiy tarixi va numizmatikasiga e'tibor qaratgan bo'lsa⁷, R.X. Sulaymonov esa Qadimgi Naxshab (Qarshi) vohasining antik va ilk o'rta asrlar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, siyosiy tarix, tarixiy topografiya, hunarmandchilik masalalarini⁸ qiyosiy tahlillar orqali ilmiy muomalaga kiritgan. L.C. Baratova qadimgi iqtisodiy (Sug'd tangalari) masalalarga⁹, A. Malikov esa ilk o'rta asrlar davri Sug'd yodgorliklaridan topilgan moddiy ashyolar orqali ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarga e'tibor qaratgan¹⁰.

Shuningdek, Sug'd tarixi bo'yicha yana bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular orasida Sh. Kamoliddinov¹¹, K. Abdullayev¹², J. Ilyasov¹³,

Янги аср авлоди, 2019. – Б. 93-94.

⁴ Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Сохранившиеся книги. Под ред Б.С. Соколова. – Москва, 1963; Арриан. Поход Александра. Кн VI. – Москва.– Ленинград, 1962.

⁵ Ходжаев А. Сведение древнекитайских путешественников о Самарканде // Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии. Мат. межд.конф. Самарканд, 7-8 октября 2009 г. – Самарканд, 2009. – С. 141-146.

⁶ Кляшторний С.Г. Древне тюрские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – Москва, 1964. – 215 с.; Гумилёв Л.Н. Қадимги турқлар. – Тошкент, 2007. – 498 б.; Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – Москва, 1970. – 287 с.; Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья СПб.; Филологический Факультет. – СПб: ГУ, 2008. – 414 с.; Зуев Ю.А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. Алматы. 2022. – 410 с.; Байпаков К.М. Западно-Тюриский Тюркешский каганати: тюрки Согдийтси, степ города Известия НАН РКаз. – Серия общ. Наук – Алматы, 2009. – №1. – С. 105-146; Камолов А.К. Тюрки и иранцы в Танской империи (618-907гг.). Дисс. на соис. уч.ст. докт.ист. наук. – Алматы, 2008. – 284 с.

⁷ Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государство культуры Центральной Азии. – Ташкент: БИ, 2005. – 246 с.

⁸ Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб, проблемы цивилизации (Узбекистана VII в.д э.VII в.н. э.) Самарканд. – Ташкент: Фан, 2000. – 344 с.

⁹ Баратова Л.С. Турк хоқонлиги ва унинг Ўрта Осиё давлатлари билан ўзаро алоқалари // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. – Тошкент, 2001. – Б. 44-59.

¹⁰ Маликов А. Тюрки в среднеазиатском междуречье в VI-VIII вв (по археологическим и письменным источникам) Автореф на соиск. уч.степ.канд.ист.наук. – Самарканд, 2000. – 24 с.

¹¹ Камолитдинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана. – Ташкент: Ўзбекистан, 1996.

¹² Абдуллаев К. Живопись крепости Тавка, к проблемы этнической ситуации Северного Тохаристана (по данным настенных росписей) // Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии. Материалы Международной конференции Самарканд, 7-8 сентября

M. Ishoqov, A. Otaxo'jayev¹⁴, O'. Mavlonov¹⁵, G'. Boboyorov¹⁶, B. G'oyibov¹⁷, F. Jumaniyozova¹⁸, A. Kubatin¹⁹ va boshqalarning tadqiqotlarida Sug'dda kechgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlarga e'tibor qaratilgan. Ularning bir qismi Sug'd vohasida turli hukmdorliklar, bir qismi esa Sug'd hunarmandchiligi va iqtisodiyoti bo'yicha, ayrimlari qadimgi yo'llar bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borishgan bo'lsa-da, ular orasida Sug'dning tarixiy geografiyasi, aholi maskanlarining ayrim toponimlari haqida ham to'xtalib o'tilgani ko'zga tashlanadi. Xorijda o'tgan asrning 90-yillarida to hozirgacha Sug'd tarixi va madaniyati bo'yicha yangi izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, F. Grene va E. de la Bess'er²⁰, N. Sims-Villyams²¹, J.K. Skeff²², Z. Shtark²³, Y. Yutaka²⁴, S. Kuvayama²⁵, M. Inaba²⁶, Yuy Tayshanlarning²⁷ izlanishlari bu borada olib borilgan tadqiqotlar orasida alohida ajralib turadi. Tahlillarga ko'ra mavzuning o'rganilish darajasini to'la holatda bo'lmasa ham birmuncha yetarli deb hisoblash mumkin. Biroq Janubiy Sug'dning tarixiy geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini umumlashma holatda olib o'rganilgan tadqiqotlarning yo'qligi sababli bu borada haligacha dolzarb muammolar mavjudligini ta'kidlab o'tish lozimdir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy talim yoki ilmiy tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

2009 г. – Самарканд-Ташкент, 2010. – С. 235-245.

¹³ Ilyasaov J.Y. On a number of Central Asian tamgas Silk Road Art and Archeology.Vol.IX. – Kamakura, 2003. – P. 131-157.

¹⁴ Исхоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Тошкент, 1992; Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-Сўғд муносабатлари. – Тошкент: АРТ-ФЛЕХ, 2010.

¹⁵ Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг Қадимги йўллари Шаклланиши, ривожланиш босқичлари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 432.

¹⁶ Бобоёров Ф. Турк хоқонлиги даврида Тохаристон // Мозийдан садо. – Тошкент, 2002. – №4. – Б. 10-11; Бобоёров Ф. Илк ўрта асрлар тангаларида Ўзбекистон ҳудудидаги давлатчиликка доир маълумотлар // Ўзбекистон тарихи манбашунослиги масалалари. – Тошкент, 2010. – Б. 18-40.

¹⁷ Ғойибов Б. Сўғд тарихидан лавҳалар. – Самарқанд, 2020.

¹⁸ Жуманиязова Ф. Илк ўрта асрларда Тохаристон ва Қобул водийсида туркий сулолалар: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 5-9, 15-7.

¹⁹ Кубатин А. Система титулов Тюрского каганата: Генезис и приемлимость. – Ташкент: Янги нашр, 2016.

²⁰ Vaissere E. de la. Is There a "Nationality of the Hephthalites"? // Buletten of the Asia Institute. New Series. Vol.17. – London, 2003. – P. 119-132; Grenet F. Regional interection in Central Asia and Northwest India in the Kidartiteand Hephthalite periods // Indo-Iranian languages andpeoples. Proceedings of the British Academy 116, 2002. – P. 206-207.

²¹ Sims-Williams N. Turks and other peoples in the Bactrian documents // O'tuken'den Istanbul'a Turkcenin 1290 Yili (720-2010).3-5 Aralik, Istanbul / 3th -5th December 2010, Istanbul. – Istanbul, 2011. – P. 15-26.

²² Skaff K.J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixty Through Eighth Centuries // TURKS. Ankara, 2002. – Vol. 2. – P. 364-372.

²³ Stark.S Die Alturkenzeit in mittel-und Zentralasien. Archaologische Studien. – Weisbaden, 2008.

²⁴ Yoshida Y. On the Origin of the Sogdian Surname Zhaowu and Related Problems // JA. – Paris, 2003. – No.1-2 291). – P. 35-67; Yoshida Y. Rewiev of BDI. – Oxsford, 2003. – No.14. – P.154-159

²⁵ Kuwayama S. The Hephthalites in Tokhharistan and Northwest India // Zinbun 24, 1989. – P. 89-134

²⁶ Inaba M. The Identity of the Turkish Rulers to the South of Hindikush from the 7th to the 9th Centuries A.D. // Zinbun. – Tokyo, 2005. – No.38. – P. 1-19.

²⁷ Taishan Yu. History of the Yeda Tribe (Hephthalites)// Eurasian Studies. Vol. I. – P. 066-119.

Ushbu tadqiqot ishi Qarshi davlat universitetining O'zbekiston tarixi kafedrasida o'rganilayotgan "O'zbekistonning janubiy viloyatlari tarixi va madaniyati" mavzusidagi ilmiy istiqbolli rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Antik va ilk o'rta asrlar davri Janubiy Sug'd hududlarining tarixi va madaniyatiga oid bugunga qadar to'plangan ma'lumotlar asosida hududlarning tarixiy geografiyasi, katta va kichik aholi maskanlari, ular bilan bog'liq toponimlar, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, etnik tarix muammolarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'rganilayotgan davrning Janubiy Sug'ddagi arxeologik tadqiqotlari tarixshunosligini tahlil etish;

Sug'dda kechgan qadimgi tarixiy-madaniy jarayonlar (qadimgi shaharlar misolida) ilmiy-qiyosiy tahlil etish;

Kitob va Shahrisabz vohalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotini o'rganish;

Yakkabog' va Chiroqchi vohalaridagi tarixiy-madaniy jarayonlarini ko'rib chiqish;

Qamashi va G'uzor vohalarining ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotini kompleks tadqiq etish;

Qarshi shahri va atrofidagi tarixiy-madaniy hamda siyosiy jarayonlarini tahlil qilish;

Kasbi va uning atrofidagi hududlarning ijtimoiy-madaniy jarayonlari tasnifini tahlil qilish;

Koson vohasining Qashqadaryo vohasidagi iqtisodiy-madaniy jarayonlardagi o'rnini o'rganish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Janubiy Sug'dda kechgan tarixiy-madaniy jarayonlari, tarixiy-geografiya, ijtimoiy-siyosiy va madaniy holat muammolari tarixi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Janubiy Sug'dning antik va ilk o'rta asrlardagi tarixiy-madaniy jarayonlar tarixi, tarixiy geografiyasi hamda ularning tarixshunoslik va manbashunoslik asosida qiyosiy tahlil etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiyada mantiqiylik, xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimlilik, xolislik, determinizm tamoyillari, har tomonlama tizimli yondashuv, tizimli taxlil orqali xulosalar chiqarish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

Antik va ilk o'rta asrlarda Janubiy Sug'd hududida joylashgan vohalar nafaqat iqtisodiy va madaniy markaz sifatida, balki mintaqaning siyosiy hayotida ham muhim o'rin tutib, Kushon davlati, keyinchalik Kidariylar, Eftaliylar va Turk xoqonligi tarkibida faol ishtiroki Janubiy Sug'dning geostrategik ahamiyatini yanada oshirib hududda siyosiy-hududiy aloqalarning jadallashuvi, tarixiy-madaniy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi hamda migratsion harakatlarning faollashuvi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qilgani asoslangan;

O'rganilgan hududda kechgan tarixiy-madaniy jarayonlar voqa va tumanlarning alohida ajralib chiqishi, ularning tarixiy-geografik joylashuvining aniq belgilanishi hamda turli turmush tarziga ega mahalliy aholi o'rtasida o'zaro aloqalarning kuchayishiga bevosita sabab bo'lib, ushbu jarayonlar tarixiy-geografik makonlarning shakllanishi, shuningdek, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun muhim omil sifatida namoyon bo'lganligi ilmiy jihatdan dalillangan;

Ilk bor Janubiy Sug'ddagi tarixiy-madaniy jarayonlar, madaniyatlar yoyilishi va almashinuvi masalalariga doir, xususan, Ellin san'ati Sug'd haykaltaroshligi va me'morchiligiga bevosita ta'sir ko'rsatib haykallarda yuz va tana tasviridagi realizm, kompozitsiyadagi garmoniya Ellin an'alaridan kirib kelgani hamda ikki san'at an'analari o'zaro sintezi natijasida haykaltaroshlikda Sharqona ramziy ifoda va Ellincha realizm uyg'unlashgan kabi nazariya va yondashuvlar aniqlangan;

Antik va ilk o'rta asrlar Sug'ddagi qadimgi jamoalar, tarixiy-madaniy tumanlar o'rtasidagi turli aloqalarning xususiyatlari hamda tarixiy-madaniy jarayonlarning o'zgaruvchanlik holati tarixiy-geografik joylashuvning mahalliy madaniyat rivojiga va etnik tarixga ta'siri hamda madaniy taraqqiyotning asoslari ilmiy jihatdan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quydagilardan iborat:

Antik va ilk o'rta asrlarda Janubiy Sug'd hududlaridagi, xususan, tuman-vohalar orasida o'zaro aloqalar masalasi bo'yicha ayrim ilmiy yangilik va yutuqlar qo'lga kiritilgan. Xususan, Janubiy Sug'd hududida qadimdan mavjud aloqalar bu davrlarda yanada jadallashgani, siyosiy va etnomadaniy munosabalarining qalinlashuvi natijasida yangi yerlarning o'zlashtirilishi natijasida tarixiy-geografiya aniqlasha borib, yangi tuman-vohalar, maskanlar, shaharlar paydo bo'lib, ular mintaqa xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi davlatchiligi an'analarning takomillashuviga o'z hissasini qo'shgani ko'rsatib berilgan.

O'rganilayotgan davrda Janubiy Sug'dning mavqeyi Markaziy, G'arbiy va Sharqiy Sug'd hududlarining rivojlanishidan kam bo'lmaganligi ko'p sonli arxeologik va tarixiy tadqiqotlar natijasida qiyosiy-tahlillarga asoslanib ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilgani, katta hajmdagi tarixiy-ilmiy adabiyotlardan qiyosiy tahlillar orqali foydalanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan bakalavr-tarixchi talabalar uchun "O'zbekiston tarixi", "Tarixiy o'lkashunoslik va urbanizatsiya jarayonlari", "O'zbekiston davlatchiligi tarixi" fanlari, "Buyuk ipak yo'li va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni", maxsus kurslari hamda magistratura bosqichi "O'zbekiston tarixi" mutaxassisligi bo'yicha

“O’rta Osiyo viloyatlari tarixiy topografiyasi” fanidan o’quv qo’llanmalari va darsliklarni yaratishda keng foydalanish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarix fanining, O’zbekiston tarixi, Arxeologiya va etnologiya, Numizmatika tarixiy geografiya, Manbashunoslik va tarixshunoslik sohalaridagi fanlararo yangicha yondashuvlar va ilmiy yo’nalishlarini yaratish vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, qadimgi tarixga oid ilmiy-nazariy, qiyosiy tahlil va umumlashtirish uslublarini takomillashtirishga imkon berishda ko’rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Antik va ilk o’rta asrlarda Janubiy Sug’d hududida joylashgan vohalar nafaqat iqtisodiy va madaniy markaz sifatida, balki mintaqaning siyosiy hayotida ham muhim tutib, Kushon davlati, keyinchalik Kidariylar, Eftaliylar va Turk xoqonligi tarkibida faol ishtiroki Janubiy Sug’dning geostrategik ahamiyatini yanada oshirib hududda siyosiy-hududiy aloqalarning jadallashuvi, tarixiy-madaniy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi hamda migratsion harakatlarning faollashuvi bo’yicha Antik va ilk o’rta asrlarda Janubiy Sug’dagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalaridan Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi dasturlarini bajarishda foydalanilgan (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi 2023-yil 15-apreldagi 01-28-son ma’lumotnomasi). Natijada Antik va ilk o’rta asrlar davrida Janubiy Sug’dda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarga oid ilmiy adabiyotlarni boyitishga hissa qo’shadi.

O’rganilgan hududda kechgan tarixiy-madaniy jarayonlar voha va tumanlarning alohida ajralib chiqishi, ularning tarixiy-geografik joylashuvining aniq belgilanishi hamda turli turmush tarziga ega mahalliy aholi o’rtasida o’zaro aloqalarning kuchayishiga bevosita sabab bo’lib, ushbu jarayonlar tarixiy-geografik makonlarning shakllanishi, shuningdek, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun muhim omil sifatida namoyon bo’lganligi haqida turli nazariya va yondashuvlar aniqlangan va ushbu ma’lumotlardan Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining 2023-yil 15-apreldagi 01-29-son ma’lumotnomasi). Natijada Janubiy Sug’dning rivojlanishida tarixiy geografiya, katta va kichik aholi maskanlari, ular bilan bog’liq toponimlar, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, etnik tarix muammolarini o’rganishga hissa qo’shadi.

Ilk bor Janubiy Sug’dagi tarixiy-madaniy jarayonlar, madaniyatlar yoyilishi va almashinuvi masalalariga doir, xususan, Ellin san’ati Sug’d haykaltaroshligi va me’morchiligiga bevosita ta’sir ko’rsatib haykallarda yuz va tana tasviridagi realizm, kompozitsiyadagi garmoniya Ellin an’alaridan kirib kelgani hamda ikki san’at an’alari o’zaro sintezi natijasida haykaltaroshlikda Sharqona ramziy ifoda va Ellincha realizm uyg’unlashgan kabi nazariya va yondashuvlar “O’zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqqdimot” ko’rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O’zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi

“O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 29-yanvardagi 02-31-123-son ma‘lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarda bu davrdagi qadimgi jamoalar, tarixiy-madaniy tumanlar o‘rtasidagi turli aloqalarning xususiyatlari hamda tarixiy-madaniy jarayonlarning o‘zgaruvchanlik holati tarixiy-geografik joylashuvning mahalliy madaniyat rivojiga va etnik tarixga ta‘siri hamda madaniy taraqqiyotning omillari ilmiy asoslarda xulosalar chiqarish imkonini bergan.

Antik va ilk o‘rta asrlar Sug‘ddagi qadimgi jamoalar, tarixiy-madaniy tumanlar o‘rtasidagi turli aloqalarning xususiyatlari hamda tarixiy-madaniy jarayonlarning o‘zgaruvchanlik holati tarixiy-geografik joylashuvning mahalliy madaniyat rivojiga va etnik tarixga ta‘siri hamda madaniy taraqqiyotning asoslari ekanligidan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Tarixiy savol” ko‘rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanildi (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 20-avgustdagi 01-44-172-son ma‘lumotnomasi). Natijada Janubiy Sug‘ddagi qadimgi jamoalar, tarixiy-madaniy tumanlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tadqiqot davomida aniqlangan, ushbu ma‘lumotlar ko‘rsatuv mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan. Shuningdek, 3 ta respublika va xorijiy maqola to‘plamlardagi ilmiy tezis hamda maqolalarda o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilish va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 8 paragraf xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar, ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 140 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan; tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi va aprobatsiyasi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobi **“Mavzuning tarixshunosligi va qadimgi Sug‘dda kechgan tarixiy-madaniy jarayonlar”** deb nomlangan bo‘lib, bu yerda, avvalo, o‘rganilayotgan davrning Janubiy Sug‘ddagi arxeologik

tadqiqotlar tarixshunosligi masalalari yoritiladi.

O'rta Osiyo Rossiya mustamlakasiga aylantirilganidan so'ng rus hokimiyati o'zining siyosiy, harbiy va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib mintaqani batafsil o'rganishga kirishdi. Xususan, O'zbekistonning janubidagi shahar va qishloqlar, bu yerda yashovchi aholi va uning etnik tarkibi, xo'jaligi, madaniyati, siyosiy qarashlari, bu hududlar orqali o'tgan aloqa yo'llari, konlar, hududlarning geografiyasi va topografiyasi, tog' dovonlari, daryo kechuvlari batafsil o'rganishga kirishildi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Qashqadaryo vohasida M. Rostislavov, V. Krestovskiy, N. Sitnyakovskiy, B. Kastalskiy, L. Zimin, V. Bartold, V. Vyatkin kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borildi. Umuman olganda dastlabki tadqiqotlarda tarixiy-madaniy jarayonlarni o'rganish "arxeologiya havaskorlari" faoliyati sifatida baholandi²⁸.

Xususan, 1940–1950-yillarda S.K. Kabanov Qashqadaryoning yuqori oqimi bo'ylab qidiruv-tekshiruv ishlarini olib bordi. Qalandartepa ko'hna shahri (Kitob ko'hna shahri)da o'tkazilgan, unchalik katta bo'lmagan qazishmalar natijasida antik davr, ya'ni mil.avv. III-I asrlar bilan sanalangan sopol majmuasi qo'lga kiritildi²⁹. Bu jarayonda olim nafaqat xronologiya masalalari, balki arxeologik yodgorliklarning etnomadaniy holatiga ham aniqliklar kiritib bordi.

1960-yillardan boshlab Qarshi vohasi, ayniqsa uning sharqiy qismini keng ko'lamli o'zlashtirish boshlandi va shu munosabat bilan yirik ekspeditsiyalar faoliyat ko'rsata boshladi. 1965-yilda M.Ye. Masson tomonidan Kesh arxeologik topografik ekspeditsiyasi (KATE) tashkil etildi³⁰ (O'sha davrdagi Tosh.DU qoshida) va 2000-yilgacha faoliyat yuritdi.

M.Ye. Masson boshchiligidagi KATE 1965–1966-yillarda Naxshab vohasida tadqiqotlar olib bordi. Ekspeditsiya azolari tomonidan antik davr ko'hna shahri Qal'ai Zaxoki Maronda qidiruv tekshiruv ishlari o'tkazildi. Tadqiqotlar natijasida bu ko'hna shahar Naxshab mulkining qarorgohi Bolo shahrining poytaxt shahar qoldiqlari ekanligi aniqlandi. Shu yillarda Yerqo'rg'on ko'hna shahri ham qisman o'rganildi.

1970-yillardan boshlab O'zbekiston FA Arxeologiya institutining Qashqadaryo ekspeditsiyasi R.X. Sulaymonov boshchiligidagi Janubiy Sug'dda ish boshladi. Ushbu ekspeditsiyaning asosiy tadqiqotlari Qarshi vohasidagi yirik ko'hna shaharlar bo'lgan Yerqo'rg'on, Qal'ai Zahoki Maron, Shulluktepa, Kosontepa kabilar bilan bog'liq bo'ldi.

²⁸ Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Дарслик. – Тошкент: Фан ва технология, 2008. – Б. 14 (236 б.).

²⁹ Кabanov С.К. Археологические разведки в верхней части долины Кашкадарии // Труды ИИА АН Уз ССР, вып. 7. – Ташкент, 1955. – С. 47-59; Ўша муаллиф. Керамический комплекс из наслоэней древнего городища Китаб // ИМКУ, вып. 3. – Ташкент: Фан, 1962. – С. 33-48.

³⁰ Лунина С.Б. Разведоваательно-обследованиэ группы античных и средневековин городитс и поселений долины Кашкадарии // Археология Средней Азии. С.Б. статьяй Таш ГУ. – № 533. – Ташкент, 1977. – С. 41-49; Ўша муаллиф. Города Южного Согда в VII-XII вв. – Ташкент, 1984. – 127 с.; Сагдуллаев А.С. Поселения раннежелезного века бассейна Кашкадари // С.А. – № 4. 1948. – С. 117-125 ва бошқалар.

Janubiy Sug'ddagi arxeologik tadqiqotlar davomida manzilgohlarning rejaviy tuzilishi masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, Kindektepa (Qarshi vohasi) ko'hna shahri dastlabki qidiruv tekshiruv materiallari asosida S.K. Kabanov tomonidan yodgorlik faoliyatining ikkita bosqichi. – milodiy I va V-VI asrlar bilan sanalandi³¹. Keyinroq M.X. Xasanov Kindiktepada keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar olib borib, ko'hna shaharning rejaviy tuzilishi, sug'orish tizimi, moddiy madaniyatiga aniqliklar kiritdi hamda ko'hna shahar qurilish bosqichlarini mil.avv. II asrning ikkinchi yarmidan milodiy V-VI asrlarni qamrab oluvchi to'rtta bosqichga ajratdi³².

So'nggi yillardagi arxeologik tadqiqotlar va yangi kashfiyotlar natijalarining tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki Sug'ddagi ilk o'rta asrlar davri tarixiy-madaniy jarayonlar umumtarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy qonuniyatlarni o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham Sug'dning bu davrdagi tarixi va madaniyatining o'ziga xosligi hamda mintaqaviy xususiyatlarining tarixshunoslik tahlillari ham muhim hisoblanadi.

Voha arxeologiyasining ilk temir davridan to' rivojlangan o'rta asrlargacha bo'lgan davri tarixi va madaniyatini qamrab oluvchi ushbu tadqiqotlarda M.Ye. Masson, G.A. Pugachenkova S.K. Kabanov, Z.I. Usmanova, S.B. Lunina, G.Y. Dresvyanskaya, R.X. Sulaymonov, A.S. Sagdullayev, X. Duke, X. Sultonov, N.I. Krasheninikova, N.P. Stolyarova, Ye.B. Pruger, A.A. Raimqulov, M.X. Isamiddinov kabi ko'plab arxeolog olimlar ishtirok etdilar. Ushbu tadqiqotlarning maqsad va vazifalari hamda yo'nalishlari quyidagi masalalarga qaratildi:

1. Qadimgi viloyatlarning joylashuvi hamda voha davlatchiligi.
2. Antik va o'rta asrlar davri Qashqadaryo vohasi shaharlari rivojlanishi, ularning topografiyasi va lokalizatsiyasi.
3. Vohadagi etnogenez, migratsiya, o'troq va ko'chmanchi aholi munosabatlari, qadimgi yo'llar va yo'nalishlar.
4. Sug'orish tizimining o'troqlashuv jarayonlari bilan bog'liqligi.
5. Qadimgi davrlardan rivojlangan janubiy Sug'd shahar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
6. Numizmatik ma'lumotlarni umumlashtirish va boshqalar.

Shu sababli ham bu davrda yaratilgan asarlar faktik ma'lumotlarga boyligi, aniqligi bilan ajralib turadi.

Antik, ilk va rivojlangan o'rta asrlar davri Sug'd tarixi va madaniyati masalalarini yoritish ko'plab ma'lumotlarni qiyosiy o'rganish, ilmiy tahlil etish, ilmiy-tanqidiy yondashuvlarni talab etishini ta'kidlash lozim. Umumlashma ma'lumotlar tahlillari shuni ko'rsatadiki, biz o'rganayotgan davr Sug'd toponimikasi, shahar va qishloq munosabatlari, urbanizatsiya jarayonlarining lokal xususiyatlari, tarixiy-madaniy jarayonlar ko'pchilik tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan. Shunga qaramasdan, ushbu

³¹ Кabanov С.К. Нахшаб на рубеже древность. – С. 40.

³² Хасанов М.Х. Античные сельские поселения Южного Согда, Автореф. но соиск.уч.ст. канд.ист.наук. – Самарканд, 1990. – 24 с.

jarayonlarni Janubiy Sug'd misolida qiyosiy-xulosaviy tahlillar asosida ilmiy muomalaga kiritish uchun imkoniyatlar yetarli ekanligini e'tirof etish lozim.

Sug'd hududida juda qadimdan yashab kelgan zahmatkash ajdodlarimiz buyuk ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va madaniyat ijodkorlari, ulkan shaharlar bunyodkorlari bo'lishgan. O'lkamizning qadimiy shahar va qishloqlarida yashagan ajdodlarimiz nafaqat o'z yurtlari, balki insoniyat taraqqiyoti uchun bemisl xizmat qilganliklarini dunyoga ko'z-ko'z qilish uchun Sug'd shaharlari Qarshi va Shahrisabzning 2700 yilligi, Samarqandning 2750 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi, bu shaharlar o'zlarining qadimiy mavqelarini yana bir bora yangidan tikladilar, obod bo'ldilar.

Mamlakatimizning markaziy qismida, hozirgi Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro vohalarini o'z ichiga olgan, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan qadimgi Sug'dda esa arxeologik yodgorliklar yanada tig'iz joylashganlar. Mazkur hududda ularning soni taxminan 4 mingga yaqin bo'lgan³³. Qadimiy manzilgohlar, qishloqlar va shaharlar xarobalari bo'lgan arxeologik yodgorliklar bizning kunlargaacha turli shakldagi katta-kichik tepaliklar ko'rinishida yetib kelganlar.

Oxirgi 40 yil davomida Sug'd hududidagi Nikshapaya shahri xarobalari (hozirgi Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Yerqo'rg'on arxeologik yodgorligi) va qadimgi Kishsh (Kitob-Shahrisabz) shahri xarobalari (hozirgi kunda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi Podayotoqtepa, Uzunqir va Sangirtepa yodgorliklari majmuasi) qisman o'rganildi. Bu ulkan shaharlar xarobalari bir necha o'n yillar davomida tadqiq etilib, shaharlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlar, mudofaa tizimlari, aholi turar-joylari o'rganilgan³⁴.

Sug'dning eng qadimgi shaharlari to'g'risida mahalliy yozma manbalar hozircha noma'lum. Miloddan avvalgi 329-yilda o'lkamizni ishg'ol qilgan Aleksandr Makedonskiy, yurishlarida ishtirok etgan qadimgi yunon tarixchilari asarlarida Marakanda shahri, bu shaharning istilo qilinishidagi turlicha voqealar hikoya qilinadi. Ana shu tarixchilar Sug'diyonaning birinchi poytaxti bo'lmish "Basileya" degan shaharni tilga oladilar. Marakanda, Samarqand shahrining qoldiqlari sifatida Afrosiyob yodgorligi tan olingani holda, Basileya shahrining qayerdaligi, uning xarobalari qaysi yodgorlik ekanligi uzoq yillar davomida noma'lum bo'lib kelganligi bois, uning joylashgan o'rnini xususida olimlar o'rtasida turlicha fikrlar, ilmiy farazlar, nuqtayi nazarlar paydo bo'ldi³⁵.

Zarafshon vohasidagi Ko'ktepa yodgorligi shakllanishi davrida yuksak darajaga erishdi. Aynan shu yerda taxminan mill.avv. IX-VIII asrlarda O'rta Osiyoda birinchi to'laqonli shahar vujudga kelgan. Bir vaqtlar Qo'shrabot, Payariq, Ishtixon va Oqdaryo tumanlaridagi arxeologik yodgorliklar ustida

³³ Ахунбабаев Х.Г. Древний Кабуданжакет (к вопросу локализации, генезиса и этапов развития Самаркандского Согда) // Археология Средней Азии. – Ташкент, 1990. – С. 26-28.

³⁴ Сагдуллаев А.С. ва бошқ. Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 161 б.

³⁵ Раимқулов А.А. Катта Суғд-Суғдиёна. Тарихий жараёнлар чорахасидаги ўлка. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2017. – Б. 5 (208).

bir necha yillar davomida ish olib borgan olim, akademik Galina Anatolyevna Pugachenkova bu hududlarni “Qadimiy Sug’d sivilizatsiyasining azaliy vatani”³⁶ deb bejiz atamagan edi. Ko’ktepada 23 gektarlik ichki shahar, ichki shaharni barcha tomondan o’rab turgan 100 gektarlik tashqi shahar maydoni, shaharning mahobatli mudofaa devorlari bilan o’ralganligi, shahar hududida saroylar va ibodatxonalarning mavjudligi, savdo-sotiqning yo’lga qo’yilganligi bu yirik aholi manzili dunyo arxeologiyasi va tarixshunoslik fanlarida qabul qilingan barcha o’lchovlarga to’la mos kelishi uning tom ma’nodagi qadimiy yirik shahar ekanligini yaqqol ko’rsatadi³⁷. Qadimgi davrlardan boshlab yangi yerlarning o’zlashtirilishi, aholi o’troqlashuvining faollashuvi, migratsiya jarayonlari natijasida Sug’d hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar rivojlanib bordi. Ushbu rivojlanish, avvalo, ilk shahar markazlari (Ko’ktepa, Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo’rg’on)ning paydo bo’lishi hamda taraqqiyotida kuzatildi. Keyinroq, antik va ilk o’rta asrlar davriga kelib, Buyuk Ipak yo’lidagi jarayonlar iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida sug’diylarning faolligi yanada kuchaydi. Shu bilan birga o’rganayotgan davr Sug’d toponimikasi, shahar va qishloq munosabatlari, urbanizatsiya jarayonlarning lokal hususiyatlari, tarixiy-madaniy jarayonlar ko’pchilik tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan. Shunga qaramasdan, ushbu jarayonlarni Janubiy Sug’d misolida qiyosiy-xulosaviy tahlillar asosida ilmiy muomalaga kiritish uchun imkoniyatlar yetarli ekanligini e’tirof etish lozim.

Dissertatsiyaning II bobi **“Kesh viloyatidagi tarixiy-madaniy jarayonlar”** deb nomlangan bo’lib, bu yerda Kitob va Shahrisabz vohalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida gap boradi.

Kitob-Shahrisabz vohasining asosini hozirgi Kitob va Shahrisabz tumanlari tashkil etadi. Kitob tumani Chiroqchi, Shahrisabz tumanlari, Samarqand viloyati va Tojikiston bilan chegaradosh. Hududining katta qismini shimoliy va sharqiy chegaralar bo’ylab cho’zilgan baland Hisor va Zarafshon tog’lari (4000 m) egallagan. Baland tog’lar tuman hududini sovuq havo oqimidan to’sib turgani uchun tuman iqlimi viloyatda eng mo’tadil. O’rtacha temperatura yanvarda 0,8°, iyulniki 28°. Yiliga o’rtacha 545 mm yog’in tushadi. Yog’inning 85% bahor va qish fasllariga to’g’ri keladi. Tuman hududidan Kashqadaryoning irmoqlari – Kichikjar, Oqsuv, Jinnidaryo, Oqdaryo oqib o’tadi. Tuprog’i Shahrisabz-Kitob botig’ida tipik bo’z, daryo bo’yida allyuvial bo’z, tog’larda qo’ng’ir tuproq³⁸.

ToshDU O’rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining 1976–1979-yillarda A.S. Sagdullayev tomonidan olib borgan tadqiqotlari natijasida Qashqadaryo vohasining sharqiy qismida ham bir qator ilk temir davri yodgorliklari ochildi. Daratepa yodgorligida o’tkazilgan ko’p yillik tadqiqotlar natijasida ushbu hudud uchun xos bo’lgan mil.avv. VII-IV

³⁶ Пугаченкова Г.А. Древности Мианкаля (Из работ Узбекостанской искусствоведаческой экспедиции). – Ташкент, 1989. – 186 с.

³⁷ Исомиддинов М.Х. Истоки городской культуры ... – С. 71-72.

³⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси К ҳарфи. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, – Б. 426-427. www.ziyouz.com кутубхонаси.

asrlarga oid turli turar joylar tuzilishi qazib o'rganildi³⁹. 1981–1984-yillarda N.I. Krashennnikova boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan Sho'robsoyning o'rta oqimida mil.avv.I ming yillikning birinchi yarmiga oid Sangirtepa, Uzunqir, Podayotoqtepa yodgorliklari ochib o'rganildi hamda ularning mudofaa devorlarini o'rganish borasida tadqiqotlar o'tkazildi.

Kesh vohasida turli yillarda keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu tadqiqotlar natijasida vohaning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixiga doir qimmatli ma'lumotlar to'plangan. M.Ye. Masson, G.A. Pugachenkova, N.I. Krashennnikovalar asarlarida ilk o'rta asrlar Kesh hozirgi Kitob o'rnida, rivojlangan o'rta asrlar shahri esa Shahrisabz o'rnida joylashganligi aniqlangan⁴⁰.

Tarixchilar odatda rivojlangan o'rta asrlar (VIII-XV asrlar) deb ataydigan davrda Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik rivojlangan (dehqonchilik ham sug'oriladigan, ham sug'orilmaydigan, lalmi), uzumchilik, polizchilik, bog'dorchilik, tog'-kon sanoati rivojlangan (tog'larda temir, qo'rg'oshin, tuz, loy va boshqalar), u orqali bir qancha savdo yo'llari o'tgan, masalan, Balx va Buxoro, Termiz va Buxoroni bog'laydigan, Samarqandga boradigan, hatto mintaqa ichidagi shaharlarni bog'laydigan darajali yo'llar ham bo'lgan. Mintaqaning o'zi, albatta, uning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi⁴¹.

Qashqadaryoning yuqori va o'rta oqimlarida Suse (Suyeyye) yoki Shi viloyati joylashgan edi. Viloyat markazi qadimdan Suyye (Suxe) Dumodaryosi (Qashqadaryo) bo'yida joylashgan bo'lib, uning yuqori irmoqlaridan birining yaqinida o'rnashgan edi. Uning aylanasi atigi 2 li (700 m) bo'lsa-da, juda mustahkam istehkom hisoblangan. Atrofi esa baland devorlar bilan o'ralgan, kechasi esa darvozalari mahkam yopib qo'yilgan. Shahar ichkarisida ibodatxona joylashgan bo'lib, u yerda qurbonlik marosimlari o'tkazilgan⁴².

O'rta Osiyoning o'troq aholisi qo'lda yasalgan sopol idishlarni pishirishdan oldin ulardagi uchburchak, zigzag va zanjirli bezak qatorlarini qizil hamda jigarrang angob bilan bo'yashgan. Pishirilgandan so'ng bu idishlar juda chiroyli ko'rinish olgan. Bunday turdagi idishlar Sug'diyona hududining Samarqand vohasi va qadimgi Keshdan ham topilgan bo'lib, odatda ular eramizdan avvalgi IX-VII asrlarga to'g'ri keladi⁴³.

O'rta asr shaharlari odatda yo'llar yaqinida yoki savdo yo'llari bo'ylab joylashgan. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, viloyatning bir qator o'rta asr mualliflari tomonidan tilga olingan tumanlarga bo'linishi uning ma'muriy bo'linishi bilan bog'liq. Shunday qilib, Ibn-Xauqal Kesh viloyatining 16 tumanini sanab o'tadi: Miyan-Kesh, Rud, Balanderan, Rasmayn, Keshk, Aru, Buzmajan, Siyam, Argan, Jajrud, Xuzar-rud, Xuzor, Suruda, Sangardak ichki,

³⁹ Сагдуллаев А.С. Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Шарқ, 1998.

⁴⁰ Лунина С. Древние города в долине Кашкадарьи. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – С. 6-7.

⁴¹ Лунина С. Древние города в долине Кашкадарьи. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – С. 6.

⁴² Нарзуллаев Ў. Жанубий Суғд тарихидан. ҚарДУ хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. – Қарши, 2017. 3(33)-сон. – 90 б.

⁴³ Сулаймонов Р. Нахшаб – унутилган тамаддун сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 13 б.

Sanggardak tashqi, Maymurg. Bunday joylar qadimda rustoqlar deb atalgan⁴⁴.

Ilk o'рта asrlarda, xususan, Turk xoqonligi davrida Kesh viloyatining ham iqtisodiy-siyosiy ahamiyati yanada oshadi. VII asrning o'rtalarida Kesh Sug'd konfederatsiyasida yetakchi o'ringa chiqib, qo'shni mamlakatlar, xususan, Xitoy bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalar o'rnatgan edi. Kesh nomi mahalliy hukmdorlar (Axurpat, Ixrid va boshqalar) nomidan zarb qilingan tangalarda uchrab, Xitoy manbalari (Suysu, Tanshu)da Shi, Kyuysha kabi nomlar bilan qayd etiladi⁴⁵. Kesh shahri rivojida voha orqali o'tgan savdo yo'llari, xususan, Farg'ona, Choch vohasi va Samarqanddan Oqrabot va Temir darvoza orqali Toharistonga olib chiquvchi yo'l katta o'rin tutardi. Ilk o'рта asrlarda Keshdan Hisor tog'lari orqali Toharistonga olib o'tuvchi tog' yo'llari (Toshrobot, Kaltaminor dovonlari)dan foydalanish ancha faollashdi. Xitoy manbalarida Sug'diyona va Toxariston chegarasida joylashgan "Temir darvoza" haqida keltirilgan ma'lumot ham Hisor tog'i dovonlari orqali o'tuvchi yo'llardan faol foydalanilganligidan dalolat beradi⁴⁶.

V-VI asrlarda Kesh atrofining moddiy madaniyatida Samarqand Sug'di bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yangi yo'nalishlar keskin ajralib turadi. Bu tendensiyalar Ovultepa binosi va majmuasi va unga mos keladigan yodgorliklarda amalga oshiriladi. Aultepa vakili bo'lgan madaniyat bilan xronologik va hududiy jihatdan unga yaqin bo'lgan Jangaltepa madaniyati o'rtasidagi keskin farq Sug'd aristokratiyasining ma'lum bir vakili o'ziga bo'ysungan aholi bilan birgalikda Zarafshonning yuqori qismidagi vohani tark etgan deyishga asos bo'ladi. Tog' tizmasini kesib o'tgan (bu chavandoz uchun atigi 2-3 kunlik yo'l), Qashqadaryo vodiysining o'рта qismidagi sug'orish uchun qulay bo'lgan siyrak yerlarni egallagan. Ko'chirish qisqa masofada va bir mamlakat ichida amalga oshirilganligi uchun buni migratsiya deb atash mumkin emas⁴⁷.

Yakkabog' tumani shimoldan Chiroqchi, Shahrisabz, sharq, g'arb va janubdan Qamashi tumanlari bilan chegaradosh. Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida joylashgan. Hududining sharqiy chekka qismlarida Hisor tizmasining, balandligi 2500 m gacha bo'lgan, janubi-g'arbiy tarmoqlari (Chaqchar, Beshnov, Xontaxta) bor. Bu tog'lar g'arbiga tomon pasayib, Qashqadaryo tekisliklari bilan qo'shib ketadi. Tog' etaklari adirlardan iborat. Tog'lardan ko'p daryo va soylar oqib tushadi. Asosiy daryosi – Yakkabog'daryo (Qizildaryo) va uning irmoqlari (Cho'yanlisoy, Turnasoy). Iqlimi kontinental. Yanvarning o'rtacha temperaturasi – 1°, eng past temperatura –25°. Iyulning o'rtacha temperaturasi 28,5°, eng yuqori temperatura 44°. Yillik o'rtacha temperatura 15°. Tumanning o'ziga xos

⁴⁴ Лунина С. Древние города в долине Кашкадарьи. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – С. 53.

⁴⁵ Бобоёров Ф. Чор ва Суғд тангалари ҳақида айрим мулоҳазалар // ҚарДу хабарлари. 2020. Махсус сон. – Б. 34.38.

⁴⁶ Сагдуллаев А, Мавлонов Ў., Маҳкамova Д. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотиқ тизими. – Тошкент: Академија, 2012. – 42 б.

⁴⁷ Крашенинникова Н.И. Маршрутное обследование Китабского района //АО 1976 г. – Москва, 1977. – С. 36-40.

relyefi (g'arbiga tomon pasayib borishi) hududga bahorikor dehqonchilik uchun yetarli nam tushishiga sharoit yaratgan. O'rtacha yillik yog'in 350 mm dan (tekislik qismida) 450 mm gacha, tog'lik qismida yog'in ko'proq. Yog'inning asosiy qismi (70%) bahor va qish fasllariga to'g'ri keladi. Tuproqlari, asosan, tipik bo'z tuproq, tog'larda qo'ng'ir bo'z tuproq. O'simlik dunyosi xilma-xil⁴⁸.

Tadqiqotlar davomida ilk temir, antik, ilk, rivojlangan va so'nggi o'rta asrlarga oid 200 ga yaqin yodgorlik-qal'alar, uy-qo'rg'onlar, qishloq va shahar harobalari topib o'rganilgan. Vohada antik davrga oid yodgorliklar tuman yodgorliklarining 8 foizni, ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklar 60 foizni, rivojlangan o'rta asr yodgorliklari 30 foizni, so'nggi o'rta asr yodgorliklari 2 foizni tashkil etadi⁴⁹.

Qashqadaryo vohasining geografik jihatdan qulay joylashganligi antik davr madaniyatining yuqori rivojlanishiga asosiy sabab bo'lgan. Bu holat Yakkabog' vohasi tog' oldi hududida joylashgan Qayrag'ochtepa yodgorligidan olingan topilmalarda ham o'z aksini topgan. Qayrag'ochtepa yodgorligining umumiy maydoni katta bo'lishiga qaramasdan, mustahkam mudofaa devoriga ega emasligi, lekin binokorlik asosida qurilgan daryo o'zani orqali suv bilan to'ldirilganligi o'ziga xos handaq va to'siq vazifasini bajarganligi kuzatildi. Yodgorlik kattaligi jihatidan Qashqadaryo vohasida Kitob va Yerqo'rg'ondan keyingi o'rinda turgan. Parmonqultepa yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida paxsadan qilingan bir necha xo'jalik xonalari ochib o'rganilgan. Olingan ma'lumotlarga ko'ra bu davrda bunyodkorlik, hunarmandchilik va dehqonchilik yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi⁵⁰.

Tumanda joylashgan Cho'chaqaytepa, Sarkobtepa, Qo'rg'ontepa, Chimqo'rg'ontepa, Sariqtepa va Toshbaqatepa kabi yodgorliklarda ham qazishma ishlari olib borilgan. Natijada, antik, ilk va rivojlangan o'rta asrlar tarixiga oid bir qator muhim ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tumanning arxeologik yodgorliklarini arxeologik jihatdan o'rganish va uning qadimgi o'tmishini yoritishda O'zR FA Arxeologiya instituti va Toshkent davlat universitetining (hozirgi UzMU) Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi ilmiy xodimlari S.K. Kabanov, Z.I. Usmanova, S.B. Lunina, A.S. Sagdullayev, G.Y. Dresvyanskaya, N.P. Stolyarova, P. Niyozov, O.N. Lushpenko, A. Raimqulov va boshqalarning faoliyati diqqatga sazovordir.

Chiroqchi tumani sharqdan Shahrisabz, Kitob, janubi-sharqdan Yakkabog', janubdan Qamashi, g'arb va janubi-g'arbdan Qarshi, Koson tumanlari, shimoldan Samarqand viloyatining Nurobod tumani bilan

⁴⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси Я ҳарфи. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, – 21 б. www.ziyouz.com кутубхонаси.

⁴⁹ Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С., Раимқулов А.А., Саидов М.М., Ражабов А.Ю., Қурбонбоев И. Қашқадарё вилояти Яккабоғ туманида 2012 йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2012 йил 9-сони. – Самарқанд, 2013. – Б. 65-66.

⁵⁰ Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С., Раимқулов А.А., Саидов М.М., Ражабов А.Ю., Қурбонбоев И. Қашқадарё вилояти Яккабоғ туманида 2012 йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2012 йил 9-сони. – Самарқанд, 2013. – Б. 63-64.

chegaradosh. Tuman hududi viloyatning shimol qismida joylashgan. Relyefi tekis cho'l va qir-adirlardan iborat bo'lib, janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa (Qoratepa tog'i) balandlashib boradi. Balandligi tekis cho'l qismida 400–600 m, adirda 700–900 m va Zarafshon tizmasining davomi bo'lmish Qoratepa tog'ida 1200–1500 m. Dursun qishlog'i yonida tabiiy gaz koni topilgan. Iqlimi keskin kontinental. Yillik o'rtacha temperatura 14,7°. Yanvarning o'rtacha temperaturasi 2,7°, eng past temperatura 20°. Iyulning o'rtacha temperaturasi 28°, eng yuqori temperatura 45°. Yiliga 368 mm, sharqida 400–500 mm yog'in tushadi. Tumandagi ekinlar Qashqadaryo, Qumdaryo, Ayoqchidaryolardan sug'oriladi. Shimoliy tog'li zonada o'tloqi, tekislik qismida tipik bo'z tuproqlar, och bo'z tuproq, daryo vodiylarida o'tloqibotqoq tuproqlar tarqalgan⁵¹.

Tuman hududida jami 65 ta yodgorlik hisobga olingan. Ulardan taxminan 14 ta yodgorlikda antik davrga, 38 ta yodgorlikda ilk o'rta asrlar davriga 28 ta yodgorlikda rivojlangan o'rta asrlarga oid kulolchilik buyumlari borligi qayd etildi. Viloyatning Yakkabog', Shahrisabz, Kitob va G'uzor tumanlarida olib borilgan arxeologik qidiruvlarda rivojlangan o'rta asrlar oid yodgorliklar 28–30%ni tashkil etgan bo'lsalar, Chiroqchi tumani hududida esa bu ko'rsatkich o'rtacha 40%ni tashkil etadi. Bu holat o'rta asrlarda bu tuman hududida Kesh vohasining boshqa hududlariga qaragandi aholi ancha gavjum yashaganligini ko'rsatadi⁵². Qashqadaryo vohasini arxeologik tekshirish bu yerda yozma manbalarda qayd etilganidan ham ko'p shaharlar borligini ko'rsatdi. Va agar qazishmalardan oldingi ba'zi xarobalar faqat shartli ravishda shaharlar deb tasniflanishi mumkin bo'lsa, boshqalar haqida ham buni aniq aytish mumkin. Bular Chiroqchi viloyatning Qashqadaryodan o'tuvchi qadimiy yo'llar yaqinida joylashgan ikkita aholi punktidir. Ulardan biri Kishmishtepa chap qirg'oqda, ikkinchisi Chandaraktepa o'ng qirg'oq yaqinida joylashgan⁵³.

Samarqanddan janubga ketuvchi asosiy yo'llarining bir yo'nalishi hozirgi Ko'kdala dashtlari va Qo'ng'irtog'ning shimoliy yonbag'irlari orqali o'tgan. Bu hududda ilk o'rta asrlarda o'troq makonlar kam uchrab, asosan, ko'chmanchi chorvador qabilalarning qishlik qarorgohlari, quduqlar mavjud bo'lib, ular Samarqand-Naxshab yo'lining muhim bekatlari sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bilan birga, vohadagi qadimgi yo'llarni o'rganish davomida to'plagan ma'lumotlarimiz Samarqand Naxshab oralig'idagi dashtlarda ilk o'rta asrlardagi yirik istehkomlar ko'rinishidagi qo'rg'onlar paydo bo'lganligini ko'rsatmoqda. Bunga misol tariqasida Ko'kdaladan 20 km.cha g'arbda joylashgan Hazorbuqa va Qoratepa yodgorliklarini ko'rsatish mumkin. Bu yodgorliklar Mahalliy chorvadorlarning qishlik qarorgohlari hamda Samarqand-Naxshab savdo yo'lining muhim

⁵¹ Баратов П. Ўзбекистон табиий геог рафияси. Қашқадарё округи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 104-109.

⁵² Раимқулов А.А., Эгамбердиев Ф.П., Тошев А.Я., Олимов У.Н. Чироқчи туманида 2016 йилда олиб борилган археологик қидирувлар. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2015-2017 йил 11-сон. – Самарқанд, 2018. – 212 б.

⁵³ Лунина С. Древние города в долине Кашкадарьи. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – С. 38.

oraliq bekatlari sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan⁵⁴.

Qadimda quyi Qashqadaryoning Naxshabdan to Kasbiga qadar bo'lgan hududida ochiq hududlar kam edi. Bu joyda o'troq hayot madaniyati yashash tarzida asosiy o'rinni band etgan. Shu jihatdan Qamashitepa manzili ham e'tiborga loyiq. Qamashitepa ikki qatlamdan iborat. Uning minorasi o'rni 60x60 m keladi. Undan janubi sharqqa qarab hovlilar cho'zilgan. Qamashitepada olib borilgan qadimshunoslik izlanishlari bu manzilning V-VI asrlarda barqaror bo'lganligini ko'rsatadi. Tepalik o'rnidan shu asrlarga oid nafis ishlangan xurmacha qazib olingan⁵⁵.

Oltintepada 1969-yildan buyon har yili olib borilayotgan ko'p yillik qazishmalar natijasida respublikamizning o'rta asrlar tarixining muhim yodgorliklaridan biri bo'lgan Qashqadaryo vodiysidagi qadimiy shahar xarobalari tobora ko'payib bormoqda⁵⁶.

Oltintepa aholi punkti Qorabog' qishlog'i yaqinidagi Qavchin qishlog'ining chekkasida, Qamashi tumanida joylashgan. Katta maydonda bu yerda ko'plab katta va kichik tepaliklar ko'rinadi. Mahalliy aholi ularni turli nomlar bilan atashadi. Oltintepa nomi 160x160 m o'lchamdagi baland (balandligi 12 m gacha) markaziy tepalik va uzunligi 800 m gacha cho'zilgan qo'shni tepaliklardan iborat. Afsuski, arxeologlar bu yerga birinchi kelganlarida, aholi punktining katta qismi allaqachon haydalgan, bundan tashqari, uning hududidan chuqur kanal qazilgan edi. Yalpoqtepa yoki Shohidtepa – bunday nomlar yaqin atrofdagi katta tepalikka berilgan. Undan uncha uzoq bo'lmagan joyda Sigirtepa baland, alohida tepalik joylashgan. Sigirtepada allaqachon qazish ishlari boshlangan bo'lib, ularda qabrlar bilan qoplangan xonalari, qalin devorlari bo'lgan monumental inshoot qoldiqlari topilgan – ko'rinadiki, bular ilk o'rta asr feodal qal'asi xarobalaridir⁵⁷.

G'uzor vohasining qadimiy tarixi va arxeologik yodgorliklari hamisha tarixchi va arxeolog olimlarni qiziqtirib kelgan. Vohaga ilk bora 1964-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) "O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasini" qoshida tashkil etilgan M.Ye. Masson boshchiligidagi Kesh arxeologik topografik ekspeditsiyasi (KATE) olimlari tashrif buyurganlar. Ekspeditsiya a'zolari G'uzor vohasi va unga qo'shni hududlarda joylashgan qadimiy yirik shaharlar xarobalari ustida ilk bora tadqiqot ishlari olib borganlar. Ekspeditsiya a'zolari g'uzorlik mahalliy qariyalardan G'uzor shahrining XX asr boshlariga oid ichki tuzilishi, mudofaa devorlari, shahar mahallalari, ko'chalar, shahar ichidagi me'moriy inshootlar, madrasalar, saroylar va boshqa jamoat binolari, darvozalar, ularning joylashishi va nomlari, xullas shaharning XX asr boshlaridagi tarixiy topografiyasi to'g'risida fan uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan

⁵⁴ Сагдуллаев А, Мавлонов Ў., Маҳкамова Д. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотиқ тизими. – Тошкент: Академија, 2012. – 40 б.

⁵⁵ Равшанов П. Қарши тарихи. Нахшаб, Насаф. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 196-197.

⁵⁶ Лунина С. Древние города в долине Кашкадарьи. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – С. 10-11.

⁵⁷ Лунина С. Древние города в долине Кашкадарьи. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – С. 11.

ma'lumotlarni yozib olganlar⁵⁸.

Navbatdagi tadqiqotlar 1979-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutning R.H. Sulaymonov boshchiligidagi Qashqadaryo arxeologiya ekspeditsiyasi olimlari tomonidan amalga oshirilga bo'lib, bu davrda G'uzor vohasida arxeologik qidiruv ishlari olib borilgan va vohada 104 ta arxeologik yodgorlik hisobga olingan edi. Lekin bu tadqiqotlar natijalari nashr etilmagan va hatto hisobot tariqasida ham rasman institut arxiviga topshirilmagan. Shunday bo'lsa-da, hisobot matni mashinkada yozilgan qo'lyozma holatida ekspeditsiya arxivida saqlanmoqda. Bu arxeologik qidiruv ishlarining qimmatli tomoni shundaki, olib borilgan arxeologik qidiruvlar natijalaridan foydalanilgan holda keyinroq R.H. Sulaymonov tomonidan G'uzor vohasi arxeologik yodgorliklarining davriy-xronologik xaritasi ishlab chiqilgan⁵⁹.

A. Raimqulovning fikricha, Subax hozirgi Saubax qishlog'i atrofida joylashgan yirik o'rta asr yodgorligi Saubaxtepa o'rnida bo'lgan. Saubaxtepa shahristoni deyarli aylana shakliga ega bo'lib, tomonlari 330x280 m (9,24 ga). Tepalikning chekkalarida mudofaa devorlari izlari deyarli bilinmasada, shimoli-sharqiy devorda beshta, janubi-sharqiy devorda esa uchta burj o'rni yaxshi ko'zga tashlanadi. Tepalikning sharq tomonidagi pasaygan joyi shaharga kiruvchi darvozaning o'rni bo'lsa kerak. Shaharcha atrofini kengligi 40-60 m bo'lgan mudofaa xandaqlari o'rab turadi. Uning orqasida esa yana tepaliklar bo'lib, bu tepaliklar rabod qoldiqlaridir. Ushbu tepaliklar bilan birgalikda shaharning umumiy maydoni 12 dan ortiqroq.

Saubaxtepa o'rta asrlar manbalarida tilga olingan qadimgi Subax shahri xarobasi ekanligi shubhasiz. Bu shahar Muqanna boshchiligidagi arablar istilosiga qarshi ko'tarilgan mashhur "Oq kiyimlilar qo'zg'oloni"ning markazlaridan biri bo'lganligi tarixdan ma'lum⁶⁰.

Dissertatsiyaning III bobi "Naxshab-nasaf viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti" deb nomlangan bo'lib, bu yerda avvalo Qarshi shahri va atrofidagi tarixiy-madaniy hamda siyosiy jarayonlar haqida so'z boradi.

Naxshabning markazi bo'lgan (hozirda Yerqo'rg'on deb nomlanadi) shaharga eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda asos solingan. Bu shahar mustahkam ikki qator devor bilan o'ralgan. O'z davrining yirik shaharlaridan bo'lgan Yerqo'rg'on Janubiy Sug'dning poytaxti ham bo'lgan. Keyinchalik eramizning VI-VII asrlariga kelib o'z o'rnini Shulluktepa o'rnida bo'lgan shaharga bo'shatib beradi. "Hudud ul-olamda" tilga olingan shahar aynan mana shu Shulluktepaga to'g'ri keladi.

Shu o'rinda Yerqo'rg'onning qadimgi nomi to'g'risida ayrim fikrlarni

⁵⁸ Массон М.Е. Работы Кешской археолого-топографической экспедиции (КАТЭ) по изучению восточной половины Кешской области УзССР 1966 г. Археология Средней Азии. Сборник научных трудов ТашГУ. – №533. – Ташкент, 1977. – С. 39–50.

⁵⁹ Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент, 2000. Рис. 31, 35–36.

⁶⁰ Раимқулов А.А., Нуриддинов Ҳ.Н., Эгамбердиев Ф.П., Тошев А.Я., Олимов У.Н. Ғузур туманида 2015 йилда олиб борилган археологик қидирувлар. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар, 2015–2017 йиллар, 11-сон. – Самарқанд, 2018. – 207 б.

aytib o'tish joiz. Shaharning antik davrdagi Ksenippa shahriga to'g'ri kelishini ko'pchilik tarixchilar ta'kidlashadi. Koson shahrining nomi shu so'zning buzilib aytilishi, uning o'rtasidan oquvchi daryoni esa qadimda Kasanab, ya'ni Koson daryosi deb atashgan⁶¹.

Qadimda Janubiy Sug'd Baqtriya, Ahomoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya va Kushon davlati tarkibiga kirgan. Shubhasiz, mana shu uzoq davr mobaynida Janubiy Sug'dda mulkiy tengsizlik jamiyatga asos solinadi, ichki va tashqi savdo yo'llari paydo bo'ladi va nihoyat xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Albatta, bu hudud o'z boshidan tinchgina rivojlanish yo'lini kechirgan emas. Mahalliy aholi vujudga keltirgan madaniyat va xo'jalikni bir necha martalab chet el bosqinchilari tomonidan vayron etilishi yoki o'zaro urushlar oqibatida shahar va qishloqlarning xarob bo'lishi bunga misol bo'la oladi.

Eftallarning siyosiy hayotida Janubiy Sug'd markaziy o'rinda turgan. Buni eftallarning turklar bilan janglarining asosiylaridan biri Yerqo'rg'on yaqinida bo'lganligidan ham bilsa bo'ladi. Yerqo'rg'onda hayot faoliyatini to'xtashiga Eftaliylar va Turklar o'rtasidagi qaqshatqich janglar sabab bo'lgan. **Qal'ai** Zaxoki-Maron esa arab istilosi davrigacha faoliyat ko'rsatgan⁶².

Qal'ai Zaxoki-Maron Qarshi shahri hududida joylashgan. U kuchli markaziy to'rtburchak tuzilishini ifodalagan, xandaqli uch qator devor bilan o'ralgan. Devorlari to'rtburchaklar rejasida dunyo tomonlariga qarab tartibga solingan. Markazda joylashgan qal'a, o'lchamlari 60X60 m, balandligi taxminan 15 m edi. Mikrorelyefga ko'ra, qal'a 10–15 metr kenglikdagi xandaq bilan o'ralgan. Janubi-sharqiy yuzidagi ichki (birinchi) devor bor edi.

Ko'rinishidan, bu qal'aga kirish joyi edi. Ichki qal'aning mustahkamlangan devori tizma bo'ylab 210x210 m o'lchamlarga ega edi. O'qning balandligi 8–9, pastki tomoni bo'ylab kengligi 20–30 m. Devorning tashqi tomoni tik, orqa tomondan – qiya bo'lib, aftidan turar-joy binolarining ichki tomoniga ulashgan. Devorning pastqam joylari yo'q va uzilib qolmagan edi, bu esa darvoza joyini aniqlashni qiyinlashtirdi. Tizma bo'ylab ikkinchi (o'rta) devorning o'lchamlari 400X400 m, devorning balandligi 8–10 m, poydevor bo'ylab eni 30–50 m⁶³.

Yerqo'rg'on tanazzulga yuz tutgandan keyin ma'lum bir vaqt **Qal'ai Zaxoki-Maron** Naxshabning poytaxti bo'lib turgan. Bu borada A. Raimqulovning ushbu shahar haqidagi fikrlari o'rinli deb hisoblaymiz. A. Raimqulov bu shaharni Naxshabga yangi etnik guruhlarning kelib o'rnashishi bilan bog'lagan hamda chorvachilik bilan shug'ullangan

⁶¹ Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII вв. – Ташкент: Ўзбекистон, 1996. – С. 55.

⁶² Яркулов А. Нахшабнинг археологик жиҳатдан ўрганилиши тарихидан. Ўзбекистон археологияси. 2011. – №1 (2). – 138 б.

⁶³ Турбеков М. Археологическое изучение оборонительных сооружений городища Калаи-Зохак-Марон. История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 15. – Ташкент: Фан, 1979. – С. 68.

xalqlarning qarargohlari bilan solishtiradi. M. Turebekovning fikricha **Qalai-Zaxoki-Maron** shahar xarobasi miloddan avvalgi II asrda paydo bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Balki u Yunon-Baqtriya davlatini vayron qilgan skif qabilalari tomonidan qurilgandir⁶⁴.

Kasbi (yoki Kasbah) Nasafdan 4 farsax, Bazdadan 6 farsax uzoqlikda joylashgan edi. Uning xarobalari Qarshi shahridan 35 km janubi-g'arbda joylashgan zamonaviy Kasbi qishlog'i yonidan topilgan. Uning besh qirrali baland qal'asi qal'a devori izlari bo'lgan shahriston va janubi-sharqdan 1 km gacha cho'zilgan ulkan rabod bilan o'ralgan edi. O'rta asr geograflari uning maydoni jihatidan Nasafdan katta ekanligini bejiz qayd etishmagan. Arxeologlarning fikricha, shahar 200 gektarga yetgan. Uning asosi qadimgi qatlamlarni o'z ichiga olgan, ilk o'rta asrlarda u qal'a bo'lib, IX-XII asrlarda jo'me masjidi bo'lgan shaharga aylangan⁶⁵.

U Buxoro-Balx yo'nalishining o'rtasida joylashgan va hatto, keyingi asrlarda ham tashqi yo'lni ta'minlovchi asosiy nuqta sifatida tanilgan bo'lib, tez yurar tuyalar, qora va yashil qorako'l terilari, qullar kabi tovarlarni bozorga chiqaradi. Bu shuni ko'rsatadiki, mo'g'ullar istilosidan keyin ham mintaqa Yevroosiyo savdosining tranzit yo'llari bo'yicha o'z mavqeini yo'qotmagan.

Bazda Kunya Fazli qishlog'i Nasafdan 40 km g'arbda joylashgan, shuningdek, Buxoro-Balx yo'llar yo'nalishidagi eng yirik markazlardan biri edi. Barcha sharq mualliflari (hatto Ibn Hauqal, barcha aholi punktlarini, Nasaf mintaqasini aholi punktlari deb tasniflaydi) sharqda shaharning belgisi hisoblangan Bazda jo'me masjidi mavjudligini shahar qudratli ekanligini ta'kidlaydilar⁶⁶.

Xulosa qilib aytganda, ilk o'rta asrlarga kelganda janubiy Sug'd hududiga, jumladan hozirgi Qarshi shahrining o'rnida yoki uning yaqinida joylashgan (Kasbi, Koson) hududlarga turli etnik guruhlarining o'troqlashishi kuzatiladi. Natijada asli Sirdaryo bo'ylarida vujudga kelib, keyinchalik Sirdaryoning quyi oqimi, Farg'ona, Ustrushona va Sug'dga keng tarqalgan qovunchi madaniyati ta'sirini ko'rish mumkin. Yonma-yon yashagan va rivojlanib bir-biriga qarishib borgan o'troq hamda chorvador aholining madaniyatlarini moddiy ashyolarda yaqqol ko'rsa bo'ladi. Ilk o'rta asrlarda Janubiy Sug'dning o'ziga xos madaniyati shakllanadi. Buni biz kulolchilikdagi mahsulotlardan Naxshab ko'zachalarining tarqalish doirasidan ham bilsak bo'ladi. Bunday ko'zachalar o'ta nafis qilib ishlanganligi, devorlarining yupqaligi va boshqa joylarda uchramasligi shundan dalolat beradi.

Kosontepa hozirgi Koson tumani markazining janubi-sharqiy tarafida, yer sathidan 8–12 m. balandlikka ega bo'lgan arxeologiya merosi obyekti hisoblanadi. Qadimda Kosontepa manzili ancha katta joyni egallagan.

⁶⁴ Туребеков М. Археологическое изучение оборонительных сооружений городища Калаи-Зохакимарон. История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 15. – Ташкент: Фан, 1979. – С. 75.

⁶⁵ Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XII вв. – Ташкент, 1984. – С. 23.

⁶⁶ Буряков Ю.Ф. Торговые трассы Трансоксианы – Мавераннахра в системе Великого шелкового пути. 2006. – С. 52.

Uning umumiy maydoni 200x150 m. hajmida. Tepalikda olib borilgan qazish ishlari pastki qatlamni keyingi asrlarda qurilgan binolar xarobalari egallab yotganligini ko'rsatdi. Tozalangan ba'zi xo'jalik o'ralardan milodgacha bo'lgan birinchi asrlarga oid osori-atiqalar topilgan. Bu joydan mo'g'ullar istilosiga qadar bo'lgan davrga tegishli madaniy qatlam ham ochilgan⁶⁷.

Shulluktepada va Kosontepada har xil hunarmandchilik mahsulotlari uchraydi. Ulardan eng yaxshi taraqqiy etganlari kulolchilik, shishasozlik va to'qimachilikdir, qo'shni Keshda esa manbalar metall ishlab chiqarishning rivojlanganligini ko'rsatadi. Kosontepa rabotining maydoni ko'zdan kechirilganda temirchilik mahsulotlari ishlab chiqarish mavjudligini ko'ramiz. O'sha shahar xarobasida olib borilgan tekshiruvlar paytida to'plangan kulolchilik materiallaridan ma'lum bo'ldiki, o'rta asrlarda Kesh va Naxshab kulollari ajoyib muvaffaqiyatlarga erishganlar⁶⁸.

Eftaliylar, Turk hoqonligi davrlarida savdo munosabatlari rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Savdoning rivojlanishi esa o'z navbatida hunarmandchilikning rivojlanishi va shahar hududining o'sib borishiga olib keladi. Keyingi asrlarda Kosontepa iqtisodiy mavqeyini mustahkamlab boradi. XI-XII asrlarga kelganda Kosontepa Qashqadaryo vohasining yirik savdo-hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan. Bu yerda ishlab chiqarilgan hunarmandchilik mahsulotlarining turli-tumanligi bizga shu haqda guvohlik bermoqda. XIII asrning boshlarida O'rta Osiyoga bostirib kirgan mo'g'ul bosqinchilari ko'pgina shahar va qishloqlarni vayron qilib tashlagani barchamizga ma'lum. Bunday bosqindan keyin ko'pchilik shaharlar o'zlarini qayta o'nglay olishmagan. Shunday shaharlar qatoriga Kosontepa ham kiradi⁶⁹.

XULOSA

Antik va ilk o'rta asrlarda janubiy Sug'dda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy, jarayonlarini tahlil qilish natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. O'zbekiston tarixi Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu borada Janubiy Sug'dda bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy voqealiklar, bu jarayonlarning tarixiy ildizlari, asoslari va omillarini yangi ilmiy ma'lumotlar asosida tadqiq etish, mavjud muammolarni ko'rib chiqish hamda umumlashtirilgan holda xulosalar chiqarish, Sug'dning O'zbekiston sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasini ilmiy asoslarda o'rganish dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun xam O'zbekistonda so'ngi yillarda antik va o'rta asrlar davri bilan bog'liq ilmiy ishlarga katta e'tibor qaratilmoqda.

2. Qadimgi yozma manbalarda Sug'diyona o'lkasi Sug'da, Sug'uda,

⁶⁷ Раимқулов А.А. Жанубий Суғднинг VIII-XIV асрлар даври тарихий топографияси. Тар.фан.докт. (DSc) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2018. – Б. 16 (46).

⁶⁸ Исомиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. – Ташкент, 1998. – С. 186.

⁶⁹ Яркулов А. Косонтёпа – Жанубий Суғднинг ilk ўрта асрлар шаҳри. Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университети. Археология, қадимги дунё тарихи ва этнография масалалари (илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд, 2006. – 63 б.

Sug'diyona, Gava Sug'da nomlari bilan eslanadi. Avestoning Yasht kitobida tilga olingan. "Sug'd makoni Gava" Sug'diyonaning eng qadimgi viloyati bo'lgan bo'lishi mumkin. Avestoda viloyatlarning nomi ikki xilda – Gava Sug'da va alohida Sug'da sifatida eslatiladi. Gerodot esa, Sug'diylarni ikki marotaba "Tarix" asarida tilga olgan bo'lsa, Ahamoniylar mixxatlari Sug'd haqida asosan rasmiy darajada e'lon qiladilar va turli xil tarixiy ma'lumotlarni o'rganishda ulardan foydalanish og'ir kechadi.

3. Voha arxeologiyasining ilk temir davridan to rivojlangan o'rta asrlargacha bo'lgan davri tarixi va madaniyatini qamrab oluvchi ushbu tadqiqotlarda tadqiqotlarning maqsad va vazifalari hamda yo'nalishlari quyidagi masalalarga qaratildi:

1. Qadimgi viloyatlarning joylashuvi hamda voha davlatchiligi.

2. Antik va o'rta asrlar davri Qashqadaryo vohasi shaharlari rivojlanishi, ularning topografiyasi va lokalizatsiyasi.

3. Vohadagi etnogenez, migratsiya, o'troq va ko'chmanchi aholi munosabatlari, qadimgi yo'llar va yo'nalishlar.

4. Sug'orish tizimining o'troqlashuv jarayonlari bilan bog'liqligi.

5. Qadimgi davrlardan rivojlangan janubiy Sug'd shahar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.

6. Numizmatik ma'lumotlarni umumlashtirish va boshqalar.

Shu sababli ham bu davrda yaratilgan asarlar faktik ma'lumotlarga boyligi, aniqligi bilan ajralib turadi.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning natijasi bo'lgan shaharsozlik madaniyatining navbatdagi ikkinchi bosqichi mil. avv VIII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda Zarafshon daryosining chap sohiliga yaqin hududda, Afrosiyob yodgorligi o'rnida Marakanda shahri (**Smarakanda**, Samarqand). Qashqadaryoning quyi oqimidagi Janubiy Sug'dning Qarshi vohasida Yerqo'rg'on yodgorligi hududida Nikshapaya (Naxshab) shahri, Qashqadaryoning yuqori oqimida, Shahrisabz vohasidagi Podayotoq, Uzunqir va Sangirtepa yodgorliklari hududida esa Kishsh (Kesh, Kitob-Shahrisabz shahri shakllangan. Bu shaharlar ham, o'z navbatida huddi Basileya (Ko'ktepa) kabi ma'lum hududlarda shakllangan kichik "voha davlatlari"ning markazlari sifatida faoliyat ko'rsatganlar.

5. Sug'diy savdogarlar karvonlarining Sug'ddan Xitoygacha yetib borishlarida turkiy qabilalar va davlatlar boshliqlarining harakatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. O'rta yer dengizidan to Xitoyning sharqiy sarhadlarigacha, hatto Koreyagacha cho'zilgan bu xalqaro savdo yo'lining markaziy qismi o'sha davrdagi Sug'd, Sug'diyona hududiga to'g'ri kelgan. Aleksandr Makedonskiyning istilosi tufayli bir vaqtlar o'z yurtlarining tashlab Dovon davlati (Farg'ona vodiysi, Janubiy Qozog'iston va Qirg'iziston) hududlaridan va Sharqiy Turkistondan qo'nim topgan sug'diy ajdodlarimiz o'zlarining ota makonlarini Xitoy bilan bog'lagan bu yo'ldagi savdo ishlarini tezda rivojlantirib yubordilar. Ular O'rta Osiyoga va O'rta yer dengizigacha bo'lgan hududlarda joylashgan mamlakatlarga Xitoydan katta miqdorda ipak keltirib oltin bahosida sotishni yo'lga qo'yidilar.

6. Ilk o'rta asrlarda, xususan, Eftaliylar davridan boshlab O'rta Osiyo hududlarining yagona davlat ostida birlashishi, keyinroq bu davlat o'rnida ulkan Turk hoqonligining o'rnatilishi Buyuk Ipak yo'lining yanada rivojlanishiga, bu esa o'z navbatida O'rta Osiyo hududida ichki savdo yo'llarining va savdo munosabatlarining taraqqiy etishiga ham olib keldi. Sug'dning janubiy sarhadlarida, hozirgi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari chegarasida joylashgan Darband qishlog'i yaqinidagi Buzgala darasida qadimdan "Temir darvoza" deb yuritiladigan manzil mavjud. "Temir darvoza" orqali janubiy Sug'dni Baqtriya-Toxariston va Hindiston bilan bog'lagan qadimgi yo'l Buyuk Ipak yo'lidan ham bir necha ming yil avval shakllangan bo'lsa-da, antik va ilk o'rta asrlar davrida u yanada rivojlangan.

7. Hozirgi Qamashi tumanining bir qismi bo'lgan, quyi Qashqadaryoning Naxshabdan Kasbigacha bo'lgan joylarida ochiq hududlar kam bo'lib, tumandagi mashhur Qamashitepa aynan shu hududda joylashgan. Shuningdek, bu hududlar o'troq yashash tarzi madaniyati rivojlangan hududlar bo'lgan. Tumandagi yana bir yirik ko'hna shahar Oltintepa hisoblanadi. Bu ko'hna shaharda hunarmandchilik ishlab chiqarish yuksak darajada taraqqiy etgan. G'uzor vohasi va unga qo'shni hududlarda joylashgan qadimiy yirik shahar harobalari tadqiqotlari o'tgan asrning 60-yillarida boshlangan. O'tgan vaqt mobaynida bu yo'nalishda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilib, G'uzor tumanidagi biz o'rganayotgan va keyingi davrlarga oid 119 ta yodgorlik hisobga olindi, tumandagi arxeologik yodgorliklarning davriy-xronologik xaritasi ishlab chiqildi. Bu ishlanmalar natijasida G'uzor vohasining antik va o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga ko'plab aniqliklar kiritildi. Xo'jabuzruktepa, Saubaxtepa, Navqat Quraysh kabilar vohadagi yirik shaharlar ekanligi e'tirof etildi.

8. Naxshabning iqlimi Qashqadaryoning yuqori oqimida joylashgan Kesh viloyatidan keskin farq qiladi. Bu yerda Naxshabning asosan tekislik va cho'lga tutashib ketganligi alohida ahamiyatga ega. Naxshabning markazi bo'lgan (hozirda Yerqo'rg'on deb nomlanadi) shaharga eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda asos solingan. Bu shahar mustahkam ikki qator devor bilan o'ralgan. O'z davrining yirik shaharlaridan bo'lgan Yerqo'rg'on Janubiy Sug'dning poytaxti ham bo'lgan. Keyinchalik eramizning VI-VII asrlariga kelib o'z o'rnini Shulluktepa o'rnida bo'lgan shaharga bo'shatib beradi. "Hudud ul-olamda" tilga olingan shahar aynan mana shu Shulluktepaga to'g'ri keladi.

9. S.K. Kabanovning "Noshebolo-Naxshab bir joyning nomi ekanligi haqidagi fikri shubhaga o'rin qoldirmaydi. Chamasi, birinchi manbalarda yoki undan ko'chirib yozishda voha nomining so'nggi bo'g'ini vohaning bosh shahri atamasi bo'lmish Boloning birinchi bo'g'ini bilan qo'shilib ketgan bo'lishi mumkin", deydi olim. S.K. Kabanov Bolo shahri – Yerqo'rg'on (Naxshab) degan qarorga keladi. U o'zining bu fikrini qat'iy himoya qiladi: "vohaning qadimdagi bosh shahri masalasida bizning nuqtayi nazarimiz o'zgargan emas: vohaning eng yirik va aftidan, yagona qadimiy shahri

xarobasi Yerqo'rg'on shaharchasi, ya'ni Vizantiya, manbalariga ko'ra Valaamdir", yana shu joyda S.K. Kabanov M.Ye. Massonning Qal'ai Zaxoki-Maron qal'asini Naxshabning o'rni (ya'ni Bolo shahri o'rni) degan fikriga qo'shilmaydi va XV asr manbalarida ham Yerqo'rg'onning Bolo shahri xarobasi ekanligiga ishoralar borligini aytib o'tadi. Naxshab-Bolo shahrining o'rni masalasida fikrlarning har xil ekanligi tarixi ancha olisdan boshlanadi.

Antik va ilk o'rta asrlarda Janubiy Sug'ddagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar mavzusidagi dissertatsiyani yaratish jarayonida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi.

1. Kesh va Nasaf-Naxshab viloyatlaridagi arxeologik yodgorliklarni "Ochiq osmon ostidagi muzey"larga aylantirish masalasiga mutasaddilar e'tiborini qaratish:

2. Bu viloyatlaridagi madaniy meros obyektlari haqida uch (rus, o'zbek, ingliz) tilidagi bukletlar yaratish turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Janubiy Sug'd shaharlari tarixi bo'yicha viloyat OTMLarida maxsus kurslar o'qitilishini yo'lga qo'yish;

4. Viloyat muzeylarini Janubiy Sug'dga tegishli bo'lgan arxeologik eksponatlar bilan yanada boyitish.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАРОМОВ ШАВКАТ АНВАР УГЛИ

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ
ПРОЦЕССЫ В ЮЖНОМ СОГДЕ В АНТИЧНОСТИ И
РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

07.00.01 – История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ

Карши – 2026

Тема диссертации доктора философии наук (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан номером B2023.4.PhD/Tar1553.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Эшов Боходир Джораевич
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: Раимкулов Абдисабур Аззамович
доктор исторических наук

Яркулов Алишер Отакулович
доктор философии (PhD) по историческим наукам

Ведущая организация: Шахрисабзский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «____» _____ 2026 году в ____ часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 по присуждению ученых степеней при Каршинском государственном университете (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04; факс: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz) Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирован под номером ____). (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04).

Автореферат диссертации распространен «____» _____ 2026 года (протокол реестра № ____ от «____» _____ 2026 года).

Г.Э. Муминова
Заместитель председателя
Научного совета по
присуждению ученых
степеней, д.и.н., профессор

Н.Н. Ражабова
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, к.и.н., доцент

Ю.А. Эргашева
Председатель Научного
семинара при Научном
совете по присуждению
ученых степеней, д.и.н.,

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации.

Начительная часть земного шара – пространство Евразии, включающее равнины, горы, степи и пустыни, с древних времён являлась важнейшим очагом исторического развития человечества. Особенно в её составной части – Центральной Азии – происходившие политические, социально-экономические и культурные процессы, миграционные потоки и межэтнические связи занимают особое место в мировой истории. Эти процессы более **ста лет** систематически изучаются в мировой историографии, однако и сегодня они сохраняют свою научную актуальность. В условиях взаимного влияния и синтеза западной и восточной цивилизаций, а также углубления международных отношений возрастает необходимость глубокого изучения культурного наследия, местных культур, а также процессов, происходивших в древних историко-культурных регионах. С этой точки зрения исследование социально-культурного развития народов Центральной Азии на основе исторических источников, определение их места в истории мировой цивилизации, а также сохранение существующего историко-культурного наследия и его передача будущим поколениям рассматриваются как одни из актуальных задач исторической науки.

Сегодня в ряде высших учебных заведений и научных центров исследование античного периода осуществляется на основе комплексного и междисциплинарного подхода. В этом процессе важное значение имеют критический анализ письменных источников, научная реконструкция археологических находок, изучение эпиграфических и нумизматических материалов, а также сравнительный анализ исторических процессов различных регионов. Подобная методология позволяет реконструировать социально-экономические системы, политические структуры и культурную жизнь древних обществ. Кроме того, культурно-антропологический подход способствует научному изучению обычаев, религиозных воззрений и этнокультурных связей древних народов. Междисциплинарная интеграция (археология, филология, этнология, социология и достижения естественных наук) обеспечивает более глубокое и широкое понимание античной истории. Таким образом, в современных исследованиях античный период рассматривается не только как отдельный исторический этап, но и как составная часть развития мировой цивилизации.

История Узбекистана является неотъемлемой частью истории

Центральной Азии и имеет важное научное значение для глубокого понимания политических, социально-экономических и культурных процессов региона. В связи с этим исследование истоков историко-культурных процессов, происходивших в Южной Согдиане, выявление основ их формирования и факторов развития на основе новых научных данных, анализ существующих научных проблем и выработка обобщённых выводов являются одной из актуальных задач исторической науки. Особенно большое теоретическое и практическое значение для современной исторической науки имеет научное освещение вклада Согдианы в формирование и развитие цивилизации Узбекистана.

В последние годы в нашей стране значительно усилились научные исследования, посвящённые изучению античного периода и раннего Средневековья. Этот процесс тесно связан, прежде всего, с принципом: «сохранение, изучение и передача исторического наследия из поколения в поколение является одним из важнейших приоритетов государственной политики»¹. В результате создаются широкие возможности для глубокого научного исследования древней истории и истории Согдианы в Узбекистане, обогащения существующих концепций национальной исторической науки, а также гармоничного сочетания их с передовыми достижениями мировой науки.

